



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 313 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmurotovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуюловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуюловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohnbazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожинов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbeyeve Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.....	293
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	
Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati.....	307
Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi	



QURILISH SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA TABIY RESURLARDAN KOMPLEKS FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi

Qoraqalpoq Davlat Universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti
nisokasimovna96gmail.com
ORCID 0009-0009-0540-6521

Annotatsiya: Maqolada qurilish sanoatining innovatsion rivojlanish istiqbollari va texnologik yangiliklar asosida uning samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Qurilish materiallari importi va mahalliy resurslardan foydalanish holati statistik ma'lumotlar asosida baholab berilgan. Xususan, xom ashyo mahsulotlari importining ortib borayotganligi, mavjud tabiiy boyliklarning katta qismi yetarli darajada o'zlashtirilmaganligi ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan. Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, imtiyozli kreditlash tizimi va tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari qurilish sanoati taraqqiyotining muhim omili sifatida baholangan. Chet ellik olimlar tajribasi, jumladan, "Lean Construction" va "Virtual Design and Construction (VDC)" konsepsiyalarining joriy etilishi soha samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Mahalliy zaxiralardan kompleks foydalanish qurilish sanoatini rivojlantirish, import hajmini qisqartirish, iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish va ichki bozorni barqaror ta'minlashga xizmat qilishi ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qurilish sanoati, innovatsion texnologiyalar, xom ashyo resurslari, iqtisodiy samaradorlik, import hajmi, investitsion loyihalar, logistika menejmenti, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, imtiyozli kreditlar.

Abstract: The article analyzes the prospects for innovative development in the construction industry and explores how technological innovations can enhance its efficiency. It evaluates the status of construction material imports and the utilization of local resources based on statistical data. In particular, it scientifically demonstrates that the import of raw materials is increasing, while a significant portion of the country's natural wealth remains underutilized. Economic reforms, a preferential credit system, and opportunities to attract foreign investments are assessed as key drivers of construction industry progress. The article substantiates that adopting foreign scientific expertise—specifically the concepts of Lean Construction and Virtual Design and Construction (VDC)—plays a crucial role in boosting sector efficiency. Theoretical analysis supports the conclusion that the comprehensive use of local reserves facilitates construction industry development, reduces import volume, lowers economic costs, and ensures stable provision of the domestic market.

Key words: construction industry, innovative technologies, raw material resources, economic efficiency, import volume, investment projects, logistics management, macroeconomic indicators, preferential loans.

Аннотация: В статье проанализированы перспективы инновационного развития строительной отрасли и вопросы повышения её эффективности на основе технологических новаций. Проведена оценка импорта строительных материалов и использования местных ресурсов на основании статистических данных. В частности, научно показано, что объем импорта сырья растёт, тогда как значительная часть природных богатств остаётся недостаточно освоенной. Экономические реформы, система льготного кредитования и возможности привлечения внешних инвестиций оценены как важные факторы прогресса строительной отрасли. Адаптация зарубежного опыта, в том числе внедрение концепций «Lean Construction» и «Virtual Design and Construction (VDC)», обоснована как ключевой инструмент повышения эффективности. На научно-теоретической основе рассмотрено, что комплексное использование местных ресурсов способствует развитию строительной индустрии, сокращению объёма импорта, снижению экономических затрат и стабильному обеспечению внутреннего рынка.

Ключевые слова: строительная отрасль, инновационные технологии, сырьевые ресурсы, экономическая эффективность, объём импорта, инвестиционные проекты, логистический менеджмент, макроэкономические показатели, льготные кредиты.



KIRISH

Hozirgi kunda mamlakatimizda qurilish sohasiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Buning natijasi sifatida mamlakatimizda keng ko'lamda amalga oshirilayotgan ishlar islohotlarning samaradorligini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkich sifatida talqin etiladi. Qurilish materiallari sanoati korxonalari salohiyatini yanada oshirish, ularning natijaliligiga, barqarorligiga yanada ahamiyat berish, samaradorligini yuksaltirish, import hajmini kamaytirish va eksport ko'lamini yanada oshirish hozirgi kun ahamiyatli masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Umuman olganda, qurilish majmui strategik ahamiyatga ega hisoblanib, quyidagi juda muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajaradi:

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida asosiy fondlarning o'sishini ta'minlaydi;

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni doimiy ravishta yangilab boradi;

Aholini ish bilan ta'minlab, bandlik darajalarini oshiradi.

Mamlakatimizda bu sohani rivojlantirish va uning ahamiyatini yanada oshirish borasida ko'pgina islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq yukini kamaytirish, banklar orqali imtiyozli kreditlarni joriy qilish, ularga amaliy yordam berish masalalari kengdan yo'lga qo'yilgan. Buning natijasida qurilish sohasida 6,4 foizga (149,86 trillion so'mgacha) (2023-yil yakunlari bo'yicha) o'sish kuzatilgan. "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hisobotlariga ko'ra, sohada hali-hanuz muayyan muammolar mavjud, jumladan, investitsiyalar yetishmovchiligi va xomashyo resurslaridan yetarli darajada foydalanilmaganligi kuzatiladi¹ Asosan, qurilish sohasida samaradorlikni oshirish va isrofgarchilikni kamaytirish, yangi texnologiyalarni tadbiq etish, chet el investitsiyalarini yanada ko'proq tortish masalalari ahamiyatli bo'lib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida qurilish xomashyosi materiallaridan yuqori darajada foydalanish orqali bu sohada samadorlikni oshirish va import hajmini kamaytirish masalalari tahlil qilingan. Bu borada chet el olimlari ham ko'pgina tadqiqotlar olib borgan, bu sohada boshqaruvni yanada takomillashtirish masalalarini o'rganib chiqqan. Prof. Dr. Gerhard Girmscheid (Germaniya) qurilish loyihalarini boshqarishda "Lean Construction" (Tejamkor qurilish) konsepsiyasini chuqur o'rganadi. Uning bu sohadagi asosiy g'oyasi – qurilish jarayonidagi isrofgarchilik (vaqt, resurs, ishchi kuchi)ni kamaytirish hisoblangan. U o'z ishlarida ish jarayonlarini tahlil qilish va takomillashtirish, qurilishdagi jarayonni xaritada aks ettirib, ortiqcha bo'laklarni yo'q qilish, ish oqimini barqarorlashtirish masalalarini amaliyotda keng ko'lamda qo'llagan. Bundan tashqari qurilish tizimlarida xavf va risklarni boshqarish bo'yicha loyiha boshqaruvi tizimlarini ishlab chiqqan.² Dr. Raymond Levitt – Stanford Universiteti qurilish menejmenti sohasidagi yetakchi olimlardan biri bolib, Virtual Design and Construction (VDC) konsepsiyasini ishlab chiqdi – loyiha dizayn, jadval va byudjetni birlashtirib boshqarish masalalarini ilgari surdi. U kiritgan asosiy tushunchalar quyidagilar:

Qurilishdagi murakkab tizimlar boshqaruvi.

Jamoaviy ishlash madaniyatini kuchaytirish (Collaborative Management).

Qaror qabul qilish jarayonlarini modellashtrish.³

Germaniya olimlari ko'proq jarayonlarni optimallashtirish va risk boshqaruvi, AQSh olimlari esa innovatsion texnologiyalar (VDC, BIM) orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga urg'u berishadi. Buning natijasida, Lean Construction va VDC texnologiyalarini joriy etish natijasida loyihalarning bajarilish muddati 15–30% ga tezlashtirilgan, byudjet sarflari 10–15% gacha kamaygan, qayta ishlashlar va xatoliklar esa sezilarli darajada qisqargan. Xususan, Stanford universiteti tomonidan olib borilgan tadqiqotlar (Kunz & Levitt, 2010) VDC yondashuvi yordamida loyiha sifati va jamoaviy hamkorlik samaradorligini oshirganini ko'rsatgan. Bu esa o'z navbatida, chet ellik investorlar uchun hududimizda faoliyat olib borishi uchun ko'pgina qulay sharoitlar yaratadi, ish samadorligi oshadi. O'zbekistonda ham bu borada ko'pgina ilmiy – amaliy ishlar olib borilgan. Jumladan, professor SH. Rahimov (TAQI), qurilish loyihalarini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari ustida tadqiqotlar olib borgan, uning ilmiy ishlari asosan qurilish jarayonlarini rejalashtirish, loyihalarni tahlil qilish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan, qurilishda resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy tahlil va investitsion baholash metodlarini ishlab chiqqan. Professor B. Rahmatov (Toshkent davlat texnika universiteti) faoliyati asosan qurilish texnologiyalari va iqtisodiy samaradorlik masalalariga ixtisoslashgan qurilishda logistika menejmenti va zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari haqida tadqiqotlar olib borgan, loyihalarning texnik-iqtisodiy asoslari va ularni boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlar bo'yicha ilmiy maqolalar muallifi. Akademik N. Saidov qurilish sohasidagi davlat investitsiyalari boshqaruvi, tender tizimi,

1 O'zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi statistik ma'lumotlari (2023–2025).

2 Girmscheid, Gerhard. Modernes Projektmanagement im Bauwesen: Systematik – Methoden – Anwendung. Zürich: vdf Hochschulverlag AG an der ETH Zürich, 2010

3 Kunz, John, and Raymond Levitt. Virtual Design and Construction: Themes, Case Studies and Implementation Suggestions. CIFE Working Paper #097. Stanford University, 2010



byudjet nazorati bo'yicha tadqiqotlar olib borgan, qurilish menejmentining huquqiy va iqtisodiy asoslarini chuqur tahlil qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

- Statistik tahlil: 2023-2025-yillarga oid qurilish materiallari import hajmlari, tabiiy resurslardan foydalanish darajasi tahlil qilindi.

- Nazariy manba tahlili: Germaniyalik olim Gerhard Girmscheid va amerikalik olim Raymond Levitt ishlariga tayangan holda ilg'or boshqaruv yondashuvlari ko'rib chiqildi.

- Hududiy resurslar bahosi: Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha foydalanilmagan foydali qazilma konlari statistikasi tahlil qilindi.

- Amaliy usul: Qurilishdagi iqtisodiy samaradorlikni baholovchi mahalliy olimlar - Rahimov, Rahmatov, Saidov ishlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish sohasini rivojlantirish, uning sohada ahamiyatini yanada oshirish, tabiiy resurslardan maksimal darajada foydalanish, eksport hajmini orttirib, import hajmini yanada pasaytirish hozirgi kun ahamiyatli masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Yuqorida ko'pgina olimlar bu sohani rivojlantirish bo'yicha ko'pgina nazariy va amaliy ishlar olib borilgan bo'lishiga qaramasdan, mamlakatimizda, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasida import hajmi hozircha eksportga qaraganda yuqori ko'rsatkichlarga ega ekanligini quyidagi ma'lumotlar orqali tahlil qilishimiz mumkin.

1-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'yicha 2023-2025-yillarda qurilish materiallari importi to'g'risida ma'lumot								
№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	2023 yil		2024 yil		2025 yil prognoz	
			Miqdori	Import hajmi	Miqdori	Import hajmi	Miqdori	Import hajmi
			ming doll					
	Jami			1 246,4		922,7		873,1
	Tayyor qurilish materiallari			1 155,1		882,5		719,9
1	Sanitar keramika mahsulotlari	dona	19 887,0	562,5	14 452,2	406,1	9,7	340,0
2	Gulqog'oz	TH	127,3	255,6	0,0	0,0	0,0	0,0
3	PVXdan quvur va fittinglar	TH	4,4	22,4	3,6	17,5	3,1	13,2
4	Qurilish oynasi	KB.M	111 168,7	204,5	218 131,1	401,3	209,3	354,0
5	O'tga chidamli keramik mahsulotlar	TH	4,2	10,3	3,1	7,1	4,1	10,0
6	O'tga chidamli sement qorishmalar	TH	0,1	1,6	0,0	0,0	9,9	2,0
7	Fasad uchun o'tga chidamli bo'lmagan qoplamalar (laklar va b.)	TH	0,0003	0,2	0,0007	0,5	0,0009	0,6
8	Mastika va turli to'ldirgich mahsulotlar	TH	0,003	0,7	0,007	1,6	0,001	0,1
9	Tabiiy pardozeb toshlar (granit va marmar)	TH	129,1	80,8	130,3	43,0	0,0	0,0
10	Keramik plitkalar	KB.M	1 798,6	13,5	0,0	0,0	0,0	0,0
11	Graviylangan, ishlov berilgan oyna	TH	1,0	2,3	2,3	5,5	0,0	0,0
12	Lok buyoq maxsulotlar	TH	0,1	0,7	0,0	0,0	0,0	0,0
	Xom ashyo mahsulotlari			91,3		40,2		153,2
13	Mineral momiq	TH	180,2	79,3	37,6	25,2	238,1	85,0
14	Shisha tolalar	TH	10,1	5,7	0,0	0,0	44,4	55,0
15	Tabiiy qum	TH	71,0	6,2	171,8	15,0	159,4	12,0
16	Plastik pol qoplamalari	KB.M	0,0001	0,1	0,0	0,0	0,0004	1,2

Jadval(1-jadval) ma'lumotlari orqali quyidagilarni tahlil qilishimiz mumkin⁴: tayyor qurilish materiallariga import oxirgi 3 yillikda (2023-2025) sezilarli darajada pasaygan. Albatta bu yaxshi ko'rsatkich, lekin xom ashyo mahsulotlariga import o'sib bormoqda. Buni quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin(2-jadval):

4 Jahon banki (World Bank) va Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB) hisobotlari: *Construction Industry Development in Transition Economies* (2022).



2-jadval

Yil	Jami import hajmi (ming dollar)	Tayyor qurilish materiallari	Xom ashyo mahsulotlari
2023	1 246,4	1 155,1	91,3
2024	922,7	882,5	40,2
2025 (prognoz)	873,1	719,9	153,2

Bundan tashqari sanitar keramika mahsulotlari importi yildan-yilga kamaymoqda (562,5 → 406,1 → 340,0). Qurilish oynasi importi 2024-yilda maksimal darajaga yetgan (204,5 → 401,3), lekin 2025-yilda biroz pasayish kutilmoqda. Xom ashyo materiallaridan, ayniqsa mineral momiq va shisha tolalar importi 2025-yilda keskin oshadi. Tabiiy qum importi 2023–2024-yillarda oshib, 2025-yilda biroz kamayadi. Fasad uchun laklar, mastika va to'ldirgichlar kabi maxsulotlar importi juda kichik bo'lsa-da, 2024–2025 -yillarda o'sish bor. Shisha tolalar va plastik pol qoplamalari 2025-yilda qayta import qilinmoqda – bu esa yangi ehtiyojlar ortib borganligini va yangi loyihalar amalga oshirilganligi bilan bog'liq. 2025-yilda xom ashyo mahsulotlariga ehtiyoj oshishi prognoz qilinmoqda. Shunday ekan, bu borada hududiy xom-ashyolardan foydalansak mahsulot tonnarxi pasayishiga erishamiz.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yilda qurilish materiallari importida pasayish kuzatilgan bo'lsada, 2025-yil prognoziga ko'ra aynan xom ashyo mahsulotlari importi keskin oshishi kutilmoqda. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlari to'liq safarbar etilmayotganidan dalolat beradi. Buni quyidagicha ifodalashimiz mumkin:⁵

3-jadval

**Qoraqalpog'iston Respublikasining qurilish materiallari mineral-xomashyo bazasi
va undan foydalanish holati bo'yicha
ma'lumot**

T/r	Foydali qazilmalar	Kon soni	konlar		O'lehov birligi	Zaxira(konlar bo'yicha)			Zaxira (%)	
			o'zlashtirilay otgan	o'zlashtirilma yotgan		jami	o'zlashtirilay otgan	o'zlashtirilm ayotgan	o'zlashtirilay otgan	o'zlashtirilm yotgan
JAMI		199	149	50						
1	Vermikulit	1	1	0	ming t.	4 999,5	4 999,5	0,0	100%	0%
2	Gips va angidrit	1	0	1	ming t.	6 506,0	0,0	6 506,0	0%	100%
3	Ohak ishlab chiqarish uchun ohaktosh	10	10	0	ming t.	279 642,8	174 688,4	104 954,4	62%	38%
4	Keramzit xomashyosi	3	2	1	ming m³	31 374,0	6 243,5	25 130,5	20%	80%
5	G'isht-cherepitsa homashyosi	29	19	10	ming m³	30 466,8	7 029,7	23 437,2	23%	77%
6	Qurilish ishlari va silikat buyumlar ishlab	8	3	5	ming m³	85 345,2	7 737,1	77 608,1	9%	91%
7	Qum-shag'al aralashmasi	38	29	9	ming m³	20 493,6	11 643,1	8 850,5	57%	43%
8	Dala shpati homashyosi va vollastonit	1	0	1	ming m³	5,2	0,0	5,2	0%	100%
9	Tabiiy pardozbop toshlar	5	4	1	ming m³	6 995,8	2 429,5	4 566,3	35%	65%
10	Shisha homashyosi	3	2	1	ming t.	13 817,0	3 964,5	9 852,5	29%	71%
11	Qurilish toshlari	90	74	16	ming m³	278 774,8	121 993,7	156 781,1	44%	56%
12	Bazalt toshi xomashyosi	2	2	0	ming m³	2 230,2	2 230,2	0,0	100%	0%
12	Sement homashyosi	8	3	5	ming t.	377 403,7	142 763,3	234 640,4	38%	62%


Jadval(3-jadval) ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi, hududda o'zlashtirilmayotgan konlar soni 50 tani tashkil qiladi, bu degani biz hali ichki resurslarimizdan to'la foydalanmayotganimizni bildiradi. Gips, angidrit, dala shpati va volastonit umuman o'zlashtirilmagan, Keramzit xomashyosi, qurilish qumlari, shisha xomashyosi, sement xomashyo materiallarini o'zlashtirish ham past ko'rsatkichda. Bu resurslarda katta hajmdagi ishlatilmayotgan potensial mavjud, ya'ni ular bo'yicha investitsiya va ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlari katta.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahliliga ko'ra, qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun mavjud bo'lgan foydali qazilmalarning sezilarli qismi hali o'zlashtirilmagan holda qolmoqda. Jumladan, qurilish qumlari (91%), keramzit xomashyosi (80%), g'isht-cheramitsa xomashyosi (77%), shisha xomashyosi (71%), sement xomashyosi (62%) kabi resurslar bo'yicha foydalanilmagan zaxiralar yuqori darajada.(1-rasm ma'lumotlari asosida)

⁵ O'zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi statistik ma'lumotlari (2023–2025).



1-rasm



Mazkur zaxiralardan samarali foydalanish orqali:

- Qurilish sanoatida importga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish,
- Ichki bozorni mahalliy resurslar bilan to'liq ta'minlash,
- Iqtisodiy xarajatlarni kamaytirish,
- Valyuta chiqimlarini qisqartirish,
- Yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Shuningdek, mavjud tabiiy boyliklar salohiyatidan to'liq foydalanish hududiy sanoat salohiyatini oshirish, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish va iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, foydalanuvga kiritilmagan konlar va zaxiralar asosida yangi investitsion loyihalarni yo'lga qo'yish, texnologik bazani yangilash va xomashyo bazasidan kompleks foydalanish muhim strategik vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida zamonaviy qurilish konsepsiyalarini joriy etish orqali chet ellik investorlar uchun yanada qulay sharoit yaratish mumkin. Ayniqsa, Lean Construction va Virtual Design and Construction (VDC) yondashuvlari qurilish sohasida samaradorlikni oshirish, vaqt va xarajatlarni qisqartirish, shuningdek loyihalarning sifatini oshirish imkonini beradi.

Bu tizimlar:

Investorlarga aniq rejalashtirilgan va xavfsiz loyiha muhitini taqdim etadi;

Qurilish jarayonida yuzaga keladigan noaniqlik va risklarni minimallashtiradi;

Mahalliy me'yorlar bilan integratsiyalangan holda, raqamli modellashtirish orqali ishlar shaffofligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bu konsepsiyalar orqali xalqaro standartlarga javob beradigan loyihalar amalga oshiriladi, bu esa xorijiy kompaniyalar uchun ishonchli muhit yaratadi. Natijada, investitsiya jalb qilish uchun raqobatbardosh infratuzilmaviy asos paydo bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada konstruksiya sohasida innovatsion rivojlanish imkoniyatlari va samaradorlikni oshirishdagi muhim omillar ilmiy asosda tahlil qilindi.

Lean Construction metodologiyasi qurilish jarayonida ortiqcha isrofgarchilikni (vaqt, material, harakat) minimallashtirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi — shu jumladan, loyiha muddatlari va byudjetni qisqartirish, sifat va xavfsizlikni yaxshilash orqali Virtual Design and Construction (VDC) esa dizaynni, jadvalni va byudjetni virtual modellarga asoslangan kompleks yondashuv orqali rejalashtirish, sinovdan o'tkazish va muvofiqlashtirish imkonini beradi. Bu esa qarama-qarshiliklarni aniqlab, qayta ishlash va xatoliklarni kamaytiradi.



Shuningdek, hududda mavjud tabiiy resurslar — masalan, qum, sement xomashyosi, mineral materiallar — ning katta qismi hali ham o'zlashtirilmagan. Bu zaxiralardan samarali foydalanish orqali:

- Importga bog'liqlik kamayadi,
- Iqtisodiy xarajatlar qisqaradi,
- Ichki bozordagi barqarorlik mustahkamlanadi,
- Valyuta eksporti va mahalliy sanoat salohiyati oshadi.

Natijada, Lean Construction, VDC va mahalliy resurslarni kompleks tarzda integratsiya qilish, vaqt va mablag'lardan samarali foydalanish, sifat va xavfsizlikni oshirish, iqtisodiy mustaqillik va investitsiyalarni jalb qilishda muhim strategik yo'nalishlarni shakllantiradi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va butun respublika misolida, ushbu yondashuv «innovatsion, iqtisodiy va ekologik barqaror» qurilish tizimini yaratishda asosiy nazar bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va Uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi statistik ma'lumotlari (2023–2025).
2. Rahimov, Sh. (2016). *Qurilish loyihalarini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslari*. Toshkent: Toshkent arxitektura-qurilish instituti nashriyoti.
3. Rahmatov, B. (2020). *Qurilish texnologiyalari va iqtisodiy samaradorlik*. Toshkent: Toshkent davlat texnika universiteti nashriyoti.
4. Kotler, P., & Keller, K.L. (2016). *Marketing Management*. Pearson Education, 15th Edition.
5. Girmscheid, Gerhard. *Modernes Projektmanagement im Bauwesen: Systematik – Methoden – Anwendung*. Zürich: vdf Hochschulverlag AG an der ETH Zürich, 2010
6. Kunz, John, and Raymond Levitt. *Virtual Design and Construction: Themes, Case Studies and Implementation Suggestions..* Stanford University, 2010



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
